



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-dekabr

E'tibor bering: 2017 yilda


- Aholi soni **533,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tug'ilganlar soni **715,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **161,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **306,0 mingta nikoh** va **31,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Doimiy aholi soni. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 32653,9 ming kishini tashkil etib, 2017 yilda 533,4 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 16533,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 %), qishloq aholisi soni 16120,0 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi.

Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida 3719,6 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 %ni) tashkil etib, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyatida 3620,1 ming kishini (11,1 %), Qashqadaryo viloyatida 3148,1 ming kishini (9,6 %), Andijon viloyatida 3011,6 ming kishini (9,2 %) tashkil etdi.

2018 yil 1 yanvar holatiga aholisi soni 3 mln. kishidan oshgan hududlar soni 4 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 yanvar holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Demografik holat


Tug'ilish. 2017 yilda 715,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,1 promilleni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan 0,7 promillega kamaydi (2016 yilda 22,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan Surxondaryo viloyatida o'sgan (25,7 promilledan 25,9 promillega) bo'lib, sezilarli darajada kamayish esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (21,9 promilledan 20,7 promillega), Farg'ona (22,2 promilledan 21,0 promillega), Toshkent (20,3 promilledan 19,2 promillega), Xorazm (22,2 promilledan 21,0 promillega), Buxoro (20,9 promilledan 20,0 promillega) va Jizzax (24,5 promilledan 23,6 promillega) viloyatlarida kuzatildi.



Onaning tug'ish tartibi bo'yicha tug'ilganlar soning taqsimlanishi (jami tug'ilganlarga nisbatan, %da)

2017 yilda jami 715,5 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, shundan onasining yoshi bo'yicha tug'ilganlarning 280,8 ming nafari (jami tug'ilganlarga nisbatan 39,2 %) 20-24 yoshlardagi ayollar, 248,1 ming nafari (34,7 %) 25-29 yoshdagi, 122,3 ming nafari (17,1 %) 30-34 yoshlardagi ayollar hissasiga to'g'ri kelgan.



Demografik holat

Vafot etganlar. 2017 yilda 161,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega oshdi (2016 yilda 4,9 promille bo'lgan).



Jami o'lim:
161,5 ming nafar

Ayollar:
73,5 ming nafar


Erkaklar:
88,0 ming nafar

O'lim koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sishi Andijon (5,1 promilledan 5,4 promillega), Jizzax (4,2 promilledan 4,4 promillega), Qashqadaryo (4,1 promilledan 4,3 promillega), Namangan (4,7 promilledan 4,9 promillega), Surxondaryo (4,3 promilledan 4,5 promillega) va Farg'ona (4,8 promilledan 5,0 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Jami vafot etganlarning 8,2 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagilarga (2016 yilda 8,0 %), 27,6 %i mehnatga layoqatli yoshdagilarga (2016 yilda 28,5 %), 64,2 %i mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilar (2016 yilda 63,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2017 yilda vafot etganlar soni 2016 yilga nisbatan 6,7 ming kishiga o'sib, ularning asosiy qismi, ya'ni 74,6 %ini 60 yosh va undan katta yoshdagi aholi tashkil etgan.

Asosiy yosh guruhlari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2016 yil yanvar-dekabr


2017 yil yanvar-dekabr

Demografik holat

2017 yilda qayd etilgan vafot etganlarning 59,9 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,3 %i o'simtalardan, 6,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,7 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning 56,4 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 3,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 4,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2017 yil yanvar-dekabr

Tabiiy o'sish. 2017 yilda aholining tabiiy o'sishi 554,0 ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 17,4 ming kishiga (2016 yilda 571,4 ming kishi bo'lgan) kamaygan.



Tabiiy o'sish:
554,0 ming kishi

Nikoh. 2017 yilda FHDYO organlari tomonidan 306,0 mingta nikoh qayd etildi. Respublika bo'yicha 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,4 promilleni tashkil etmoqda.



Tuzilgan nikohlar soni 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (126,6 %), Jizzax va Namangan (115,9 %), Samarqand (112,3 %) hamda Qashqadaryo (111,2 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikoh qurganlarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi (%)

	Jami	20 yoshgacha	20-29 yosh	30 yosh va undan kattalar
Erkaklar	100,0	0,9	83,5	15,6
Ayollar	100,0	21,6	70,2	8,2

2017 yilda jami nikoh qurgan ayollarning 21,6 %i 20 yoshgacha, 70,2 %i 20-29 yoshlilarga, 8,2 %i 30 yoshdan katta yoshdagilarga to'g'ri kelgan bo'lsa erkaklarning 0,9 %i 20 yoshgacha, 83,5 %i 20-29 yoshlilarga va 15,6 %i 30 yosh va undan kattalarni tashkil etmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2017 yilda FHDYO organlari tomonidan 31,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi



Ajrimlar soni 2016 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (128,6 %), Jizzax va Sirdaryo (122,2 %) Samarqand (121,2 %), Namangan (119,0 %) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (118,2 %) to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajraluvchilarning 18 yoshga to'lmagan umumiy bolalari soni



24,4 mingta bola

26,8 mingta bola

2016 yanvar-dekabr

2017 yanvar-dekabr



Poytaxtdagi demografik holat.

O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 2465,6 ming kishini tashkil etib, 2017 yilda 41,5 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan.

2017 yilda 43,8 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 17,9 promilleni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan 0,3 ga (2016 yilda - 18,2 promille) kamaydi.

2017 yilda 16,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 0,7 ming nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar sonini tashkil qilmoqda. O'lim koeffitsienti 6,7 promilleni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 0,2 ga kamaydi (2016 yilda - 6,9 promille).

Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 27,4 ming kishini tashkil etib va 2016 yilga nisbatan o'zgarishsiz (2016 yilda 27,4 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2017 yilda 19,2 mingta nikoh va 3,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,9 promilleni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan o'zgarishsiz (2016 yilda - 7,9 promille) qoldi.



Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,5 promilleni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 0,3 ga (2016 yilda 1,8 promille) kamaydi.

Demografik holat


Migratsiya. 2017 yilda respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 157,1 ming kishini (155,0 ming kishi respublika hududlaridan, 2,1 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 177,7 ming kishini (155,0 ming kishi respublika hududlariga, 22,7 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 20,6 ming kishi bo'lib, 2016 yilga nisbatan 5,6 ming kishiga kamaygan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2016 yil	2017 yil
Ko'chib kelganlar	141,6	157,1
Ko'chib ketganlar	167,8	177,7
Migratsiya saldosini	-26,2	-20,6

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Toshkent (minus 6,2 ming kishi), Samarqand (minus 5,2 ming kishi), Qashqadaryo (minus 4,0 ming kishi) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 4,4 ming kishi) qayd etildi.


O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi (2017 yilda, jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni **2094 kishi**



O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi (2017 yilda, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni **22651 kishi**



Davlat statistika qo'mitasining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: **B.Shodiyev**
(71) 230-80-65